

BOLALARNI MAKTABDAGI TA'LIM JARAYONIGA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH: YANGI BOSHLOVCHI UCHUN – MUVAFFAQIYAT KALITI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakultite bakalavr bosqichi

maktabgacha ta'lif yo'nalishi 1-kurs

MT 1-24 guruh talabasi

Istatova Mohlaroyim Ravshan qizi

Fayzullayeva Dinora G'uzor qizi

Kalit so‘zlar: psixologik tayyorgarlik, maktabga tayyorlov, emotsiyal rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, bolaning ruhiy holati, ta'limga motivatsiya.

Keywords: psychological readiness, school preparation, emotional development, social adaptation, child's mental state, learning motivation.

Annotatsiya : Ushbu maqolada bolalarni maktabdagi ta'lif jarayoniga psixik jihatdan tayyorlashning ahamiyati yoritilgan. Bolaning maktabga tayyorligi nafaqat bilim darajasi, balki uning ruhiy barqarorligi, emotsiyal holati, ijtimoiy ko‘nikmalari va ta'limga bo‘lgan motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Maqolada amaliy tavsiyalar, muammolar tahlili va ularni hal etish yo‘llari keltirilgan.

Annotation : This article explores the importance of preparing children psychologically for the school education process. A child's readiness for school is not only determined by academic knowledge, but also by emotional stability, social skills, and internal motivation toward learning. The article presents practical recommendations, identifies challenges, and offers strategies for addressing them effectively.

Har bir bola hayotida mакtabga ilk qadam qo‘yishi ulkan o‘zgarish va yangiliklarga boy bosqich hisoblanadi. Bu jarayon faqat yangi bilim va ko‘nikmalarни egallashni emas, balki bolaning ijtimoiy, emotsiонаl va ruhiy jihatdan yangi muhitga moslashishini ham talab etadi. Afsuski, ko‘p hollarda ota-onalar va hatto pedagoglar bolani mакtabga tayyorlashda faqat akademik tayyorgarlikka urg‘u berib, uning psixologik holatiga yetarlicha e’tibor qaratmaydilar. Aslida esa, bolani mакtabdagi ta’lim jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlash – uning keljakdagi muvaffaqiyatlari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, darslarga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy muhitga tez moslashuvi uchun muhim omildir. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama tayyorlashni talab qiladi. Shu jumladan, mакtabgacha ta’lim muassasalarida va oilaviy tarbiyada bola psixikasiga e’tibor qaratish, uning emotsiонаl barqarorligini ta’minlash, o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatish – mакtab hayotiga silliq va muvaffaqiyatli o‘tishning asosiy kalitidir. Bolani mакtabdagi ta’lim jarayoniga psixologik tayyorlash – bu faqatgina pedagogik yoki psixologik yo‘nalishdagi ish emas. Bu – ota-ona, tarbiyachi, pedagog va jamiyatning umumiy mas’uliyatini ifodalaydigan kompleks jarayondir. Maktebgaga borish bolaning hayot tarzini, kundalik odatlarini, muomala doirasini va his-tuyg‘ularini o‘zgartiradi. Ana shu o‘zgarishlarga bolani to‘g‘ri va vaqtida tayyorlash, uni stress holatlaridan asrash, o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatish – uning kelgusi ta’limidagi muvaffaqiyati uchun muhim omildir. Mazkur maqolada aynan shu masalaga – bolalarni mакtabdagi ta’lim jarayoniga psixologik jihatdan to‘g‘ri va samarali tayyorlashning ahamiyati, usullari hamda bu boradagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llariga e’tibor qaratiladi.

Bolalarni mакtabdagi ta’lim jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlash – bu uzoq muddatli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan muhim jarayondir. Ushbu tayyorgarlik bolaning emotsiонаl barqarorligini, ijtimoiy ko‘nikmalarini, o‘zini anglash va muhitga moslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolaning maktebgaga tayyorligi nafaqat uning bilim darajasi, balki ruhan tayyor bo‘lishi bilan ham belgilanadi. Psixologik tayyorgarlik quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Emotsional tayyorgarlik – bola o‘z his-tuyg‘ularini tushunishi, ularni boshqara olishi, tashqi bosimlarga chidamli bo‘lishi kerak. Maktabda yangi muhit, ko‘plab qoidalar va tartib-intizomga duch keladi. Agar bola bunga psixik jihatdan tayyor bo‘lmasa, bu unga kuchli stress keltirishi mumkin.

2. Ijtimoiy tayyorgarlik – bola jamoada ishslash, do‘stlar orttirish, muammo yuzaga kelganda tinch yo‘l bilan hal qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Maktabga kelgan bola o‘zini yolg‘iz yoki begona his qilmasligi, balki o‘z o‘rnini topa olishi kerak.

3. Motivatsion tayyorgarlik – bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji shakllantirilishi lozim. Bu esa ko‘proq oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarida yaratiladigan ijobiy muhit orqali rivojlanadi.

4. Shaxsiy-harakat tayyorgarlik – bola mustaqil qaror qabul qilish, o‘z harakatlarini rejalashtirish va nazorat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Bu ko‘nikmalar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

L.S. Vygotskiy (rossiyalik psixolog) fikriga ko‘ra, bolaning rivojlanishi uchun yaqin taraqqiyot zonasasi juda muhim: bola mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar yoki tengdoshlar yordami bilan bajara oladigan faoliyatlar bu zonani tashkil etadi. Maktabga tayyor bola – bu yaqin taraqqiyot zonasiga kiruvchi murakkab topshiriqlarni bajarishga tayyor boladir. Elkoninning ta’kidlashicha, 6-7 yoshli bolalar maktabga tayyorlanayotganda, o‘yin asosiy faoliyat turi bo‘lishda davom etadi, lekin asta-sekin o‘quv faoliyatiga o‘tish jarayoni yuz beradi. U shunday deydi: “O‘quv faoliyati bolaning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi.”. A.V. Zaporojes bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi – bu faqat bilim emas, balki axloqiy-irodaviy sifatlarning shakllanganligi bilan ham aniqlanadi degan fikrlarni ilgari surgan . Masalan: topshiriqni oxirigacha bajara olish, sabrli bo‘lish, javobgarlikni his qilish.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabga psixik jihatdan tayyor bo‘lmagan bolalar ko‘pincha ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch keladilar, darslarga qiziqish bildirmaydilar, o‘z tengdoshlaridan orqada qolishadi. Bu esa nafaqat bolaning o‘qishdagi muvaffaqiyatiga, balki uning umumiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan,

bola mактабга qадам qо‘yishidan oldin, ota-onalar, tarbiyachilar va psixologlar o‘zaro hamkorlikda bolada ruhiy tayyorgarlikni shakllantirishi kerak. Rivojlantiruvchi o‘yinlar, erkin suhabatlar, bolaga ishonch bildirish, uning fikrini tinglash, bиргаликда kitob o‘qish va muhokama qilish kabi usullar bunga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabdagi ta’lim jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlash — bu uning kelajakdagi muvaffaqiyatli ta’lim faoliyatining, ijtimoiy moslashuvining va sog‘lom shaxs sifatida shakllanishining asosi hisoblanadi. Bola mактабга nafaqat bilim olish uchun, balki o‘z hayotida muhim bosqichni boshlab beruvchi yangi tajribalarni egallash uchun kiradi. Shu boisdan, uning ruhiy holatiga e’tibor qaratish, hissiy ehtiyojlarini tushunish, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash — har bir ota-ona, pedagog va mutaxassis zimmasidagi muhim vazifadir. Mazkur maqolada keltirilgan tavsiyalar, kuzatuvalar va ilmiy asoslangan yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik tayyorgarlik mактabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Chunki psixologik jihatdan tayyorlangan bola – bu faqatgina yaxshi o‘quvchi emas, balki jamiyatda muvaffaqiyatli yashashga qodir sog‘lom shaxs demakdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Smilansky S. (2021). The Role of Play in the Development of the Young Child. Routledge.
2. Berk L. E. (2020). Child Development (10-nashri.). Pearson Education.
3. Виготский Л.С. «Мышление и речь» – Москва: Педагогика, 2018.
4. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G’.Turg’unboyeva, M.X.Asranboyeva / Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi / O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rtamaxsus ta’lim vazirligitormonidan mактabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan darslik /Toshkent2017/ 195b